



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
<i>Abdiqayumova Malika</i>	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
<i>Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi</i>	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
<i>Atamirzayeva Ezoza</i>	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
<i>Aminova Asilaxon Sobir qizi</i>	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
<i>Уразова М. Б., Абатова У. Б.</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
<i>Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Gaipova Akjunis Qayratovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
<i>Alimov Bekzod Nematovich</i>	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
<i>Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</i>	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
<i>Yusupova Mukhabbat Anatolyevna</i>	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
<i>Erkinova Sevara Najmiddin qiz</i>	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
<i>Gulsara Khakimova</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
<i>Hikmatova Jamila Fatox qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
<i>I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna</i>	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
<i>Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi</i>	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
<i>Murodova Farangis G'anisherovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
<i>Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna</i>	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
<i>Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi</i>	
Sensor integratsiya autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
<i>Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	

PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHDA MICROTEACHING METODINING TASHKILIIY ASOSLARI VA UNI SAMARALI QO'LLASH MEXANIZMLARI

Abdiqayumova Malika

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Pedagogika" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining nazariy-metodologik asoslari, tashkiliy xususiyatlari va uni amaliyotga samarali joriy etish mexanizmlari atroficha yoritilgan. Maqolada microteachingning mohiyati, bosqichlari, ishtirokchilari, shuningdek, uning pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini, xususan, tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Metodni tashkil etishda e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlar, qayta aloqa berish, baholash mezonlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: microteaching, pedagog kadrlar tayyorlash, kasbiy kompetensiya, tahliliy ko'nikma, didaktik texnologiyalar, qayta aloqa, video tahlil, pedagogik amaliyot.

Abstract: This article provides a detailed description of the theoretical and methodological foundations, organizational features and mechanisms for its effective implementation in practice of the microteaching method in teacher training. The article provides a thorough analysis of the essence, stages, participants of microteaching, as well as its importance in developing the professional competencies of teachers, in particular, analytical skills. Practical recommendations are put forward on the aspects that should be paid attention to when organizing the method, feedback, assessment criteria, and the possibilities of using modern technologies.

Key words: microteaching, teacher training, professional competence, analytical skills, didactic technologies, feedback, video analysis, pedagogical practice.

Аннотация: В данной статье подробно описаны теоретические и методологические основы, организационные особенности и механизмы эффективного внедрения метода микрообучения в практику подготовки учителей. Проведен всесторонний анализ сущности, этапов, участников микрообучения, а также его важности для развития профессиональных компетенций учителей, в частности, аналитических навыков. Предложены практические рекомендации по аспектам, на которые следует обратить внимание при организации метода, обратной связи, критериев оценки и возможностей использования современных технологий.

Ключевые слова: микрообучение, подготовка учителей, профессиональная компетентность, аналитические навыки, дидактические технологии, обратная связь, видеоанализ, педагогическая практика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri - jamiyat talablariga javob beradigan, kasbiy kompetensiyalarga ega, innovatsion fikrlovchi va doimiy rivojlanishga intiluvchi pedagog kadrlar tayyorlashdir. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020), "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va pedagogik ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlar ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shulardan biri - microteaching (mikroo'qitish) metodi bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillash-tirishda samarali vosita hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Microteaching metodi XX asrning 60-yillarida Stenford universitetida D. Allen tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik R. Bush, B. O. Smith va G. Borich tomonidan rivojlantirilgan. Shuningdek, D. Schönning reflektiv amaliyot nazariyasi hamda L. Shulmanning pedagogik mazmun bilimi (PCK) konsepsiyasi ushbu



metodning nazariy asosini mustahkamlaydi.

An'anaviy pedagogik amaliyotda talabalar ko'nikmalarni kompleks tarzda egallashga harakat qiladi, biroq bu jarayonda individual ko'nikmalarni chuqur tahlil qilish imkoniyati cheklangan. Shu sababli microteaching metodi pedagogik tayyorgarlik sifatini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Microteaching metodi bo'lajak o'qituvchilarga o'z pedagogik ko'nikmalarini nazorat qilinadigan, qulay va xavfsiz muhitda amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradi. Bu metod, ayniqsa, o'qituvchining dars berish mahoratini, muayyan pedagogik ko'nikmalarni (savol berish, tushuntirish, doskadan foydalanish, darsni boshqarish va boshqalar) shakllantirish va takomillashtirishda samarali hisoblanadi. Bugungi kunda microteaching nafaqat pedagogik oliy ta'lim muassasalarida, balki pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimida ham keng qo'llanilmoqda. Metodning asosiy afzalligi shundaki, u o'quv-amaliyot jarayonini kichik qismlarga bo'lib, har bir qismni chuqur tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish va takroran mashq qilish imkonini beradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning tahliliy fikrlash, o'z-o'zini baholash va tanqidiy yondashuv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:


1. **Nazariy tahlil** - microteaching metodiga oid ilmiy manbalar va konsepsiyalar o'rganildi;
2. **Taqqoslash metodi** - an'anaviy va innovatsion o'qitish usullari qiyoslandi;
3. **Tizimli yondashuv** - microteaching metodining bosqichlari va tashkiliy asoslari tizimli tahlil qilindi;
4. **Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish** - metodni joriy etish mexanizmlari asoslandi.

Microteaching – bu pedagogik o'qitishning kichik hajmdagi, intensiv va nazorat qilinadigan shakli bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarga muayyan bir o'qitish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli dars berish amaliyotini o'z ichiga oladi. Bu jarayon odatda video yozuv orqali amalga oshiriladi va keyinchalik o'qituvchi, uning tengdoshlari hamda o'qituvchi-mentor tomonidan chuqur tahlil qilinadi.

Microteaching jarayoni odatda besh asosiy bosqichdan iborat:

1. **Rejalashtirish (Plan):** Bo'lajak o'qituvchi ma'lum bir mikro-ko'nikmani (masalan, kirish qismida motivatsiya yaratish) tanlaydi va shu ko'nikmaga qaratilgan qisqa (odatda 5-10 daqiqa) dars rejasini ishlab chiqadi. Bu bosqichda darsning maqsadi, mazmuni, o'qitish metodlari va baholash mezonlari aniq belgilanadi.
2. **O'qitish (Teach):** Talaba-o'qituvchi ushbu qisqa darsni "o'quvchilar" (ko'pincha boshqa talabalar yoki kichik guruh) oldida o'tkazadi. Bu jarayon video kameraga yozib olinadi.
3. **Tahlil va qayta aloqa (Critique & Feedback):** Dars yakunlangach, video yozuv birgalikda (talaba-o'qituvchi, tengdoshlar va mentor-o'qituvchi) ko'rib chiqiladi. Ishtirokchilar tomonidan konstruktiv tanqid, takliflar va baholar beriladi. Bu bosqichda o'quvchining o'z-o'zini tahlil qilishi muhimdir.
4. **Qayta rejalashtirish (Re-plan):** Qayta aloqa natijalariga asoslanib, talaba-o'qituvchi dars rejasini takomillashtiradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgarishlar kiritadi.
5. **Qayta o'qitish (Re-teach):** Takomillashtirilgan dars ikkinchi marta o'tkaziladi (boshqa o'quvchilar guruhida yoki birinchi guruhda). Bu ham video yozib olinadi va yana tahlil qilinadi. Bu jarayon ko'nikma to'liq o'zlashtirilgunga qadar takrorlanishi mumkin.

Microteaching metodi asosida o'qitish jarayonining didaktik sikli:



TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida microteaching metodining pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar microteaching metodining bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, microteaching metodini qo'llash pedagoglarning quyidagi kompetensiyalarini rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

*Birinchi*dan, kasbiy-pedagogik kompetensiyalarning shakllanishi jadallashadi. Xususan, darsni rejalashtirish, o'quv materialini tizimli bayon etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish kabi ko'nikmalar izchil rivojlanadi.

*Ikkinchi*dan, tahliliy va reflektiv fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada takomillashadi. Video tahlil va qayta aloqa asosida talabalar o'z faoliyatini mustaqil baholash, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishga o'rganadilar.

*Uchinchi*dan, o'z-o'zini baholash va o'z ustida ishlash kompetensiyasi shakllanadi. Microteaching jarayonining takroriyliigi (re-teach bosqichi) orqali talabalar o'z pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladilar.

*To'rtinchi*dan, alohida pedagogik ko'nikmalar samarali rivojlanadi. Jumladan:

- savol berish texnikasi;
- tushuntirish mahorati;
- darsni boshqarish;
- o'quvchilarni motivatsiya qilish;
- didaktik vositalardan foydalanish.

Shuningdek, microteaching metodining nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Talabalar nazariy bilimlarni bevosita amaliy faoliyatda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa bilimlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Microteaching metodini samarali qo'llash mexanizmlarini tahlil qilish natijasida quyidagi tizimli yondashuv asoslandi:

- pedagogik faoliyatni aniq va o'lchanadigan mikro-ko'nikmalarga ajratish;
- har bir mikro-dars uchun maqsadga yo'naltirilgan qisqa dars ishlanmasini ishlab chiqish;
- konstruktiv va mezonlarga asoslangan qayta aloqa tizimini joriy etish;
- video yozuv va tahlil texnologiyalaridan foydalanish;
- o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish.

Kuzatuv xarakteridagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, microteaching metodidan muntazam foydalanish natijasida talabalar o'rtasida pedagogik faoliyatga nisbatan ishonch darajasi ortadi, dars o'tish jarayonidagi psixologik to'siqlar kamayadi hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

Bundan tashqari, metodning takroriy va bosqichma-bosqich tashkil etilishi o'quv jarayonida individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Bu esa har bir talabaning o'ziga xos rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, olingan natijalar microteaching metodining pedagog kadrlar tayyorlash tizimida samarali innovatsion texnologiya sifatida qo'llanishi mumkinligini, uning yordamida o'qituvchilarning kasbiy tayyorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish mumkinligini tasdiqlaydi.

Microteaching metodini pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga joriy etish zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu metodning asosiy ustunligi - o'qitish jarayonini kichik, boshqariladigan va tahlil qilish mumkin bo'lgan qismlarga ajratish orqali pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich takomillashtirish imkoniyatini yaratishidir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, microteaching metodi nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki reflektiv yondashuvni rivojlantirish orqali o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy baho bera olish qobiliyatini ham oshiradi. Bu jihat D. Schön tomonidan ilgari surilgan reflektiv amaliyot nazariyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, pedagogning o'z tajribasini anglash va takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.



Shuningdek, microteaching jarayonida pedagogik mazmun bilimi (PCK)ni rivojlantirish imkoniyati ham kengayadi. L. Shulman ta'kidlaganidek, o'qituvchi faqatgina fan mazmunini bilishi bilan cheklanib qolmasdan, uni qanday o'qitishni ham chuqur anglab yetishi zarur. Microteaching aynan shu jarayonni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

An'anaviy pedagogik amaliyot bilan solishtirganda, microteaching metodining ustun jihati - bu individual pedagogik ko'nikmalarga yo'naltirilganligi va tezkor qayta aloqa mexanizmining mavjudligidir. Katta auditoriyalarda olib boriladigan darslarda o'qituvchi o'z xatolarini darhol aniqlash va tuzatish imkoniga ega bo'lmasligi mumkin, microteaching esa ushbu muammoni bartaraf etadi. Video yozuv asosida olib boriladigan tahlil jarayoni esa o'qituvchining o'z faoliyatini tashqi nigoj bilan baholashga yordam beradi.

Biroq, metodni samarali qo'llash uchun muayyan tashkiliy va metodik shart-sharoitlarni ta'minlash zarur. Xususan, qayta aloqaning sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar feedback yuzaki yoki subyektiv bo'lsa, metodning samaradorligi pasayadi. Shu sababli qayta aloqa berishda aniq mezonlarga asoslangan, konstruktiv va rivojlantiruvchi yondashuvni qo'llash lozim.

Bundan tashqari, baholash mezonlarini standartlashtirish ham muhim masalalardan biridir. Har bir mikroko'nikma uchun alohida indikatorlar ishlab chiqilishi o'qituvchilarning rivojlanish dinamikasini aniq kuzatish imkonini beradi. Bu esa baholash jarayonining obyektivligini ta'minlaydi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi microteaching metodini yanada takomillashtirish imkonini bermoqda. Xususan, video tahlil platformalari, sun'iy intellekt asosidagi baholash vositalari va onlayn ta'lim muhitlari orqali mikroo'qitish jarayonini masofaviy shaklda ham samarali tashkil etish mumkin. Bu esa metodning qo'llanish doirasini kengaytiradi.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud. Masalan, microteaching jarayoni sun'iy yaratilgan o'quv muhitida amalga oshirilgani sababli real sinf sharoitidagi murakkab pedagogik vaziyatlarni to'liq aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, metodni tashkil etish uchun vaqt, texnik vositalar va malakali mentorlar zarur bo'ladi.

Umuman olganda, microteaching metodini pedagogik ta'lim tizimiga integratsiya qilish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Uning samaradorligi esa metodni ilmiy asosda tashkil etish, tizimli yondashuvni qo'llash va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish darajasiga bevosita bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Microteaching metodi pedagog kadrlar tayyorlash tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini, xususan, tahliliy fikrlash, o'z-o'zini baholash va pedagogik ko'nikmalarni amalda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun noyob va samarali vosita hisoblanadi. Metodning tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari, rejalashtirishdan tortib, qayta aloqa va baholashgacha bo'lgan bosqichlarni chuqur o'zlashtirishni talab qiladi. Mazkur metodni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish pedagogik ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini yanada oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5156-son Qarori.
4. Allen, D. W., & Ryan, K. (1969). Microteaching. Addison-Wesley.
5. Borich, G. D. (2011). Effective teaching methods: Research-based practice. Pearson.
6. Musurmonov, O. (2018). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent.
7. Schön, D. A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic Books.
8. Shermuhammedova, N. A. (2017). Oliy pedagogik ta'limda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik asoslari. Toshkent: Fan.
9. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), 4-14.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.